



Sessiyada Oliy Majlis Senati Ishchi guruhi tomonidan viloyatni kompleks o'rganish yakunlari muhokama qilindi





Bugun, 20 fevral kuni Xalq deputatlari Surxondaryo viloyati Kengashining yigirma uchinchi sessiyasi bo'lib o'tdi. Unda viloyatdan saylangan senatorlar, Xalq deputatlari viloyat Kengashi deputatlari, viloyat sektorlari, boshqarma va tashkilotlar rahbarlari, viloyat hokimining o'rinbosarlari hamda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Ishchi guruhi a'zolari ishtirok etdi.

Sessiyani viloyat hokimi, Kengash raisi T.Bobolov boshqarib bordi.



Joriy yilning 15 – 20 kunlari O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Ishchi guruhi tomonidan Surxondaryo viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga qaratilgan qaror va dasturlar ijrosini ta'minlash yuzasidan amalga oshirilayotgan ishlar kompleks o'rganildi.

Sessiyada dastlab Ishchi guruh rahbari, Senatning Mudofaa va xavfsizlik masalalari qo'mitasi raisi o'rinbosari Tolibjon Madumarov o'tkazilgan o'rganish yakunlari haqida so'z yuritdi.



Ta'kidlanishicha, o'rganish davomida byudjet, iqtisodiy islohotlar, agrar, suv xo'jaligi, ekologiya, kommunal, yo'l-qurilish va transport infratuzilmasi, ijtimoiy soha,

jinoyatchilik va sud-huquq hamda mahalliy Kengashlar faoliyatini takomillashtirish borasida viloyatda olib borilayotgan ishlar tahlil qilindi.

Tahlillar viloyatda hududlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash va yangi ish o'rinlari yaratish orqali aholi turmush darajasini oshirish borasida muayyan ishlar amalga oshirilganligi ko'rsatdi.

Jumladan, viloyatda 2020 yilning yanvar-dekabr oylari davomida yalpi hududiy mahsulot hajmi 24 trln. so'mni, o'sish sur'ati esa o'tgan yilning mos davriga nisbatan 104,4 foizni tashkil etgan.

Viloyat bo'yicha 5 trln. 515,9 mlrd so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan, 7 trln. 919,7 mlrd so'mlik xizmatlar ko'rsatilgan, chakana savdo aylanmasi 12 trln. 352,6 mlrd. so'mni tashkil etgan.

Mahalliy byudjet daromadlari prognoz rejasi (1 trln. 198 mlrd. so'm) amalda 116,7 foizga (1 trln. 398 mlrd. so'm) bajarilganligi natijasida byudjetga 200 mlrd. so'm qo'shimcha manbalar shakllantirilgan.



2020 yilda xorijiy investitsiya ishtirokidagi 252 ta loyihalarda 221,2 mln. dollar to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiya va xorijiy kredit mablag'lari o'zlashtirilgan. 245,2 mln. dollarlik mahsulotlar eksporti amalga oshirilgan.



Viloyatda 2020 yilda 222 ming 979 gektar sug'oriladigan yer maydoniga qishloq xo'jaligi ekinlari to'liq joylashtirilgan, o'tgan yilda 1 mln 881 ming tonna sabzavot, 326,8 ming tonna poliz, 330,2 ming tonna kartoshka, 164,5 ming tonna meva, 95,5 ming tonna uzum, 24,4 ming tonna dukkakli don mahsulotlari yetishtirilgan.



Viloyatda "Temir daftar"ga kiritilgan 52,5 mingdan ortiq oilalarga 59 mlrd. so'm miqdorida manzilli yordam ko'rsatilgan, ushbu oilalarning 52,2 ming nafar mehnatga



layoqatli a'zolari ish bilan ta'minlangan va doimiy daromad manbaiga ega bo'lgan. Natijada sektor rahbarlarining tavsiyalari asosida xalq deputatlari tuman (shahar) Kengashlarining qarorlari bilan 49 mingdan ziyod oilalar "Temir daftar" ro'yxatidan chiqarilgan.

Bugungi kunga qadar viloyat bo'yicha jami 28 ming 928 nafar xotin-qiz "Ayollar daftari", 56 ming 752 nafar o'g'il-qiz "Yoshlar daftari"ga kiritilib, ishsiz yoshlar va xotin-qizlar bandligini ta'minlash choralari ko'rilmogda.



Sessiyada O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining ishchi guruhi tomonidan viloyatni o'rganish jarayonida aniqlangan hududni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish borasida o'z yechimini kutib turgan muammo va kamchiliklar haqida ham so'z yuritildi.

Mazkur muammoli masalalar viloyat hamda respublika darajasida hal etilishi nuqtai nazaridan chuqur tahlil etildi, tegishli idora va tashkilotlar rahbarlarining hisobotlari eshitildi, mavjud muammolarni bartaraf etish bo'yicha "Yo'l xaritasi" tasdiqlandi.



Sessiyada shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 28 dekabrda "O'zbekiston Respublikasining 2021-2023 yillarga mo'ljallangan investitsiya dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarorining viloyatdagi ijrosini ta'minlash to'g'risida Xalq deputatlari viloyat Kengashi deputati Dilbar Suvonovning ma'ruzasi tinglandi.

Deputatlar Xalq deputatlari Surxondaryo viloyati Kengashi raisining o'rinbosarini tayinlash to'g'risidagi masalani ham ko'rib chiqdilar. Kengash raisi o'rinbosari lavozimiga "Al-Xakim at Termiziy" yodgorlik majmuasi direktori, 17-Alpomish saylov okrugidan deputat Choriyev Abduraim Ravshanovichning nomzodi bir ovozdan ma'qullandi.

